Inklyuziv ta'lim sharoitida olib boriladigan pedagogik faoliyat imkoniyatlari	885
<i>Abidova Nilufar Zakirovna</i>	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni kasbga yo'naltirish: pedagogik yondashuvlar va amaliy tajribalar.....	888
Ahmedova Lola Abdivasi qizi	
Aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy kompetensiyasini shakllantirishning asosiy komponentlari va samarali omillari.....	893
Anvarova Dilfuza Akramjanovna	
O'quv topshiriqlari orqali 6-sinf o'quvchilarining pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari.....	896
Ashirboyeva Nafisa Aminboyevna	
Talabalarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini takomillashtirish va uning amaliy ahamiyati.....	900
Ergasheva Maftunaxon Avazbekovna	
Talabalarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida reflektiv tafakkurni rivojlantirish	904
Ergasheva Nigora Dilshodjon qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari.....	907
Isabekova Dilafruz Shermirzayevna, Gazibekova Gulavza Ergashovna	
Innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning nazariy asoslari.....	913
Murodov Akmal Djayliboyevich	
Maktabgacha ta'lim yoshdagi intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarning estetik muomala madaniyatini tarbiyalash.....	917
Po'latova Parida	
Fizika fanini o'qitishda raqamli ta'lim vositalarining samaradorligi.....	920
Saparova Gulmira Baxtiyorovna	
Rus tilini o'qitishda an'anaviy va audiovizual usullarning qiyosiy tahlili	923
Umarov Aziz Avazovich	
An Analysis of The Importance of Teaching English at the Primary Level.....	927
Vasila Almetova Sunnatullayevna	
Muammoli ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash.....	931
Adizova Nodira Baxtiyorovna	
"Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning ilmiy-pedagogik yondashuvlari	936
Akmaljon Xushvaqto'v	
Iqtidorli talabalar bilan ishlash pedagogik muammolari	939
Delov To'liqin Erkinovich	
Rinolaliya nutq nuqsonining anatomik jihatdan kelib chiqishi	945
Kabirova Zarnigor Raxmonjon qizi	
Methodology for Teaching Modal Verbs in English Lessons	949
Kholnazarova Vazira Bozor qizi	
The Use of Mobile Apps to Build Vocabulary Proficiency	953
Kosimov Sunnat Ravshan ugli	
Disability Terminology in Uzbek: Etymological Evolution and Future Trends	957
Kuchkarova Xurshida	
Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	

Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	
Talabalarda divergent tafakkurni rivojlantirish usullari	1091
Adizova Nigora Baxtiyorovna	
Milliy tarbiya tizimida milliy tilning o'rni (jadid pedagoglari qarashlari misolida)	1096
Almuratova Gulbaxor Mansur qizi	
Kompetensiyaviy ishlab chiqarish bo'yicha pedagogika kollejlari o'quvchilarining o'quv-bilish "yaratish" faol modeli	1100
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida deontologik madaniyatning tarkibiy qismlari va pedagogik, psixologik tahlili	1106
Axadova Mahliyo Xalimovna	
Scientific and Methodological Foundations of the Development of Universal Competencies of Students..	1109
Bakhtiyor Suvonkulov	
Maktabgacha 5-6 yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning yosh bilan bog'liq xususiyatlari va tarbiyachining mahorati	1113
Daminova Shoxista Farxodovna	
Gospital pedagogika – shifoxona va maktab o'rtasidagi ko'prikdir	1117
Dilmurod Alimov	
Rus tili o'qituvchilarining kasbiy faoliyati asoslari	1121
Ergashov Ma'murjon Mominjonovich	
Muhandislik ta'limida smart-ta'lim texnologiyalari va adaptiv loyihalash kompetensiyasining nazariy-metodologik asoslari	1125
G. Sh. Tursunova	
6–7 yoshli bolalarda ikkinchi tilni o'rgatish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish: metodik yondashuvlar	1130
G'aniyeva Shahlo Abduqahhor qizi	
Sun'iy intellekt vositalari orqali bo'lajak o'qituvchilarda axborotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantirish	1138
Inadullayeva Sevara Qahramonovna	
Jadid adabiyotini o'qitishda dekonstruktiv yondashuv va samarali pedagogik strategiyalar	1141
Isabayeva Asida Yusufjonovna	
Kimyo ta'limida natriy va uning birikmalarini o'qitishda pinbord usulining metodik imkoniyatlari.....	1146
Iskandarov Aybek Yuldashevich, Axmedova Nargiza Rustamovna	
Sifat menejmenti zamonaviy menejmentning funksional xarakteristikasi sifatida.....	1149
Jabbarbergenova Bibimariyam Amangeldiyevna	
Development of Speed-Strength Abilities of Qualified Wrestlers in Sports Improvement Groups.....	1155
Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich. Komilov Aziz Xoshimovich	
Odam va hayvonlar fiziologiyasi fanining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va didaktik ahamiyati	1160
Kaljanov Damir Maxsetbayevich	
Psychological Preparation of Young Judo Players Before and During Competitions	1165
Komilov Aziz Xoshimovich, Jumadurdiyev Bahodir Xolmamatovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish	1171
Komilova Farog'at Numonjon qizi	
Tarbiya innovativ metodlarining oilada tutgan o'rni.....	1176
Marimbayeva Bibidona Rinat qizi	
Tibbiyot texnikumi o'quvchilarining mustaqil ishlari orqali kognitiv ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	1180
Matchanova Malika Maxmudovna	
Pedagogik innovatsiyalar va yangi metodologik yondashuvlar: Design Thinking, Project-Based Learning, Problem-Based Learning onlayn shaklda	1183
Muydinjonov Ziyodjon Rafiqjon o'g'li	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining kasbiy tayyorgarligi va rivojlanishidagi pedagogik shart-sharoitlar	1187
N. Sh. Djumaniyazova	
Badiiy gimnastikachilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishning nazariy asoslari	1190
Nazarova Mohinur Atxam qizi	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish texnologiyasi	1195
Nishonova Durdona Olimjon qizi	
Politeknikumlarda "Veb dasturlash" fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi	1201
Nuriddinova Gulnigor Taxirjanovna	
O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (uchinchi nashri) dagi o'zgarishlar	1205
Otahanova Manzura G'ofurovna	
Sog'lom turmush tarzi vositasida oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy salomatligini pedagogik strategiyalar orqali rivojlantirish metodikasi	1210
Qayumov Shohruh Abduljalol o'g'li, Norqulov Shokir Muzzaffarovich, Karimova Mohinur Abduljalol qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida yozgi sog'lomlashtirish va chiniqtirish davrida ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini ta'minlash	1214
Qurbonova Asal Dilshod qizi	
O'quvchilarining kreativligini rivojlantirish bosqichlari	1218
Safarova Madina Azamat qizi	
Fizika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	1222
Shag'ataeva Uldanay O'serbay qizi	
Oliy ta'lim tizimida klasterli yondashuvni qo'llash orqali talabalar induktiv va deduktiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish	1227
Shermatova Saxobaxon Rahmonberdi qizi	
Milliy qadriyatlar asosida tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy yondashuvlari	1231
Sherov Dilshod Reyimberganovich	
Ta'lim jarayonida o'qituvchilarni baholashda interaktiv va moslashuvchan usullar	1236
Sayfuddinova Kavsar Rahmatulloh qizi	
Nogiron bolalarni tekshirishda psixologik-pedagogik diagnostikaning ahamiyati	1239
Umarova Sabaxon Minavvarovna, Yuldasheva Dilbarxon Turg'unovna	
Ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining muloqot qobiliyatini rivojlantirish	1242
Xalilova Muxlisa Ulug'bek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlari	1247
Xayitov Jonibek Xolboboyevich	
Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish	1250
Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna	

PEDAGOGLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISH JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISHNING PEDAGOGIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Xudoyberdiyeva Janona Rustamovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası katta o’qituvchisi

ORCID: 0009-0004-4743-1788

Annotatsiya: Maqolada pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishga oid pedagogik tizimni takomillashtirish yondashuvlari ko’rib chiqilgan. Kompleks nazariy va empirik tahlil asosida diagnostika, shaxsiy o’quv yo’lini shakllantirish hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etishni o’z ichiga olgan individuallashtirish modeli taklif etilgan. Eksperiment natijalari pedagoglarning motivatsiyasi oshganini, innovatsion metodlardan foydalanish ko’lami kengayganini va kasbiy charchash alomatlari kamayganini ko’rsatdi. Modelni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beruvchi omillar, shuningdek infratuzilma va kadrlar sharoitlariga bog’liq cheklollar aniqlangan. Tadqiqot ta’lim sohasida malaka oshirishning shaxsga yo’naltirilgan tizimlarini rivojlantirish istiqbollarini ochib beradi.

Kalit so’zlar: uzluksiz kasbiy rivojlanish, o’qitishni individuallashtirish, pedagogik tizim, pedagog kompetensiyalari, ta’lim texnologiyalari, motivatsiya, kasbiy charchash, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim.

Abstract: The article considers approaches to improving the pedagogical system of individualizing the process of continuous professional development of teachers. Based on a comprehensive theoretical and empirical analysis, an individualization model is proposed, which includes diagnostics of competencies, the formation of a personal learning path, and the introduction of modern educational technologies. The experimental results showed increased teacher motivation, expanded use of innovative methods, and reduced symptoms of professional burnout. Factors contributing to the successful implementation of the model, as well as limitations related to infrastructure and personnel conditions, were identified. The study reveals prospects for the further development of person-oriented systems of professional development in the field of education.

Key words: continuous professional development, individualization of training, pedagogical system, teacher competencies, educational technologies, motivation, professional burnout, person-oriented education.

Аннотация: В статье рассматриваются подходы к совершенствованию педагогической системы индивидуализации процесса непрерывного профессионального развития педагогов. На основе комплексного теоретического и эмпирического анализа предложена модель индивидуализации, включающая диагностику компетенций, построение персональной траектории обучения и внедрение современных образовательных технологий. Результаты эксперимента показали повышение мотивации педагогов, расширение применения инновационных методов и снижение признаков профессионального выгорания. Выявлены факторы, способствующие успешной реализации модели, а также ограничения, связанные с инфраструктурными и кадровыми условиями. Работа открывает перспективы дальнейшего развития персонализированных систем повышения квалификации в сфере образования.

Ключевые слова: непрерывное профессиональное развитие, индивидуализация обучения, педагогическая система, компетенции педагогов, образовательные технологии, мотивация, профессиональное выгорание, персонализированное обучение.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimini isloh qilish sharoitida pedagoglarning kasbiy rivojlanish jarayonini takomillashtirish eng muhim yo’nalishlardan biri hisoblanadi. Yangi ta’lim paradigmasiga o’tish o’qituvchidan nafaqat an’anaviy dars berish usullarini egallashni, balki o’z kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz ravishda yangilab borishni ham talab qiladi. Bunga sabab – jamiyat va mehnat bozorining tez o’zgaruvchan talablari.

Pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirish ta’lim sifati oshirishining strategik omiliga aylanmoqda. Chunki bu jarayon har bir pedagogning shaxsiy xususiyatlari, kasbiy ehtiyojlari va martaba



maqsadlarini hisobga oladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar kasbiy o'sishning moslashuvchan modellarini yaratish zarurligiga e'tibor qaratadi, bu modellar esa o'qituvchining individual rivojlanish yo'li asosida quriladi.

Bu ayniqsa raqamli ta'lim texnologiyalari va masofaviy o'qitish shakllari joriy etilayotgan sharoitda dolzarbdir. Chunki ular ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, uzluksiz ta'lim konsepsiyasida "umr bo'yi o'qish" (lifelong learning) g'oyasi ta'kidlanadi. Bu esa mavjud pedagogik tizimlarni qayta ko'rib chiqishni va pedagogning o'z kasbiy o'sishidagi sub'yektlilik pozitsiyasini rivojlantirishga yo'naltirishni talab etadi.

Shunga qaramay, ko'plab ilmiy ishlar malaka oshirish va attestatsiya jarayonlariga bag'ishlangan bo'lsa-da, bu jarayonni samarali individuallashtirish muammosi hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bu muammoning murakkabligi shundaki, kasbiy rivojlanish jarayoni ko'p omilli bo'lib, unda tashqi (ta'lim siyosati, infratuzilma) va ichki (shaxsiy motivatsiya) omillar uyg'un hisobga olinishi lozim.

Shu sababli, ushbu maqolaning maqsadi – pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirish pedagogik tizimini takomillashtirish yo'llarini asoslash va tavsiflashdan iborat. Tadqiqot doirasida mavjud kasbiy o'sish modellariga tahlil beriladi, ularning kuchli va zaif tomonlari aniqlanadi hamda zamonaviy sharoitda pedagoglarning samarali individual rivojlanish yo'lini qurish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagoglarning kasbiy rivojlanishini individuallashtirish muammosi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan. Uzluksiz ta'limni kasbiy o'sishning asosi sifatida talqin etuvchi yondashuvlar A.A. Verbitskiyning ishlarida chuqur tahlil qilingan.

E.S. Polat o'z tadqiqotlarida ta'lim jarayonini shaxsiylashtirish konsepsiyasini batafsil tahlil qilib, ayniqsa masofaviy texnologiyalarning individual o'quv yo'llarini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Xorijiy mualliflar ham pedagog kadrlarni tayyorlashda "lifelong learning" (umr bo'yi o'qish) tamoyilining ahamiyatiga e'tibor qaratadilar. Bu yondashuv o'qituvchining kasbiy faoliyati davomida doimiy o'rganish va o'z ustida ishlash zarurligini asoslaydi.

Bundan tashqari, T.V. Kudryavtsevning tadqiqotlari loyihaviy faoliyatning pedagoglarning kasbiy rivojlanishini individuallashtirishdagi samarali vosita sifatida qo'llanishini ko'rsatadi. Unga ko'ra, loyiha asosidagi o'qitish nafaqat o'qituvchining ijodiy salohiyatini oshiradi, balki kasbiy refleksiya va motivatsiyani ham rivojlantiradi.

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy chaqiriqlarni va pedagoglarning individual xususiyatlarini hisobga oluvchi yangi pedagogik tizimni ishlab chiqish bugungi kunda juda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish natijasida ushbu tadqiqotning nazariy asoslari aniqlanib, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirishga qaratilgan yangi model ishlab chiqish zaruriyati isbotlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi, ya'ni u nazariy hamda empirik metodlarni o'z ichiga oldi.

Nazariy tahlil pedagoglarning kasbiy rivojlanishini individuallashtirish muammosiga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni, shuningdek ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish asosida amalga oshirildi.

Empirik tadqiqot qismida anketaviy so'rovnoma usulidan foydalanildi. So'rovda umumta'lim maktablari, kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan 150 nafar pedagog ishtirok etdi. So'rovning asosiy maqsadi – mavjud malaka oshirish tizimidan pedagoglarning qoniqish darajasini aniqlash hamda individual ta'lim yo'llarini joriy etish bo'yicha ularning ehtiyojlarini o'rganishdan iborat edi.

Bundan tashqari, 15 nafar pedagogika va ta'lim boshqaruvi sohasidagi mutaxassislar bilan ekspert suhbatlari o'tkazildi. Ular taklif etilgan individuallashtirish modelining amaliy ahamiyatini baholadilar.

Olingan ma'lumotlar statistik tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, foiz hisoblash, korrelyatsion tahlil va taqqoslash metodlari qo'llanildi.

Tadqiqotning eksperimental bosqichi 6 oy davomida uchta ta'lim muassasasi bazasida o'tkazildi. Ushbu bosqichda taklif etilgan individuallashtirish mexanizmlari amalda sinovdan o'tkazildi. Natijalar esa an'anaviy kasbiy rivojlanish tizimida faoliyat yuritgan nazorat guruhi bilan taqqoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan anketaviy so'rov natijalariga ko'ra, 67% pedagoglar amaldagi malaka oshirish tizimini yetarlicha moslashuvchan emas deb baholadilar va u o'zlarining kasbiy ehtiyojlariga to'liq javob bermasligini ta'kidladilar. 58% respondentlar o'qituvchilarning kasbiy o'qitish jarayonida individuallik yetarli darajada ta'minlanmaganini bildirgan bo'lsa, 72% ishtirokchi o'z ixtisosligi, ish staji va martaba maqsadlarini hisobga oluvchi shaxsiy o'quv yo'lini yaratishga katta qiziqish bildirdilar.

Ekspert suhbatlari ham yangi tizim zarurligini tasdiqladi. Mutaxassislar mavjud malaka oshirish modellari aksariyati rasmiy talablarga (masalan, uch yilda bir marotaba kurs o'tish) yo'naltirilganini, lekin pedagogning haqiqiy kasbiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olmayotganini qayd etdilar.

Ekspperimental tadqiqot natijasida pedagogik individuallashtirish tizimining modeli ishlab chiqildi. U quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

1. Diagnostika bosqichi – pedagogning mavjud kompetensiyalarini aniqlash va ularning rivojlanishidagi bo'shliqlarni baholash uchun raqamli vositalardan foydalanish.
2. Individual ta'lim yo'lini qurish – diagnostika natijalari, pedagogning professional qiziqishlari, martaba yo'nalishlari hamda murabbiylarning tavsiyalari asosida shakllantiriladi.
3. Ta'lim dasturini amalga oshirish – aralash (blended learning) va masofaviy o'qitish shakllari, master-klasslar va loyihaviy faoliyat orqali amalga oshiriladi.
4. Yakuniy attestatsiya va o'z-o'zini baholash – erishilgan natijalarni mustahkamlash va keyingi rivojlanish yo'lini tuzatish uchun o'tkaziladi.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini individuallashtirishning pedagogik tizimini takomillashtirish yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining mazmunini tahlillash natijasida quyidagicha xulosalarga kelindi:

- pedagogika fanining metodologiyasiga, ta'lim jarayonini individuallashtirish kabi xorij metodikasida yangicha mazmun va shakl kasb etgan texnologiyalarni kiritish, ularning mohiyatiga doir darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratish, qo'llanilishini kengaytirish orqali zaruriy tajribalarga erishishni kechiktirib bo'lmaydi;
- tadqiqot avvalida olingan tahlillar natijasida dastur yaratish, ularni tinglovchilarning ehtiyojlariga moslash tajriba so'ngida ijobiy samaradorlikka ega bo'lishga zamin yaratdi;
- pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish jarayonini individuallashtirish strategiyalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliyotda qo'llanganidan so'ng, xususan respondentlar tomonidan ham pedagogik tizimni takomillashtirishi mumkinligi qayd etildi.

Individuallashtirish nafaqat kasbiy rivojlanishga, balki pedagoglarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi: 83% ishtirokchi kasbiy charchash belgilarining kamayganini va ishga nisbatan qoniqish darajasining oshganini qayd etdi.

Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, tajriba guruhidagi o'zgarishlar ancha sezilarli bo'ldi: nazorat guruhida o'qishdan qoniqish darajasi 3,2 ball atrofida o'zgarishsiz qoldi, tanlovlarda ishtirok esa atigi 8% ga oshdi.

Shunday qilib, olingan natijalar individuallashtirish pedagogik tizimi modeli yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi. U pedagoglarning kasbiy rivojlanish sifati va motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning barqaror shaxsiy va kasbiy o'sishiga zamin yaratadi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirish ularning ta'limiy faoliyatidagi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi hamda kasbiy motivatsiyani kuchaytiradi.

An'anaviy malaka oshirish tizimlaridan farqli o'laroq, taklif etilgan model pedagogni o'z kasbiy rivojlanishining faol subyekti sifatida ko'radi. Bu esa zamonaviy pedagogika fani talablariga to'liq mos keladi [Verbitskiy, 2017; Polat, 2020].

Nazorat guruhi bilan taqqoslaganda, majburiy kurslarda ishtirok etish pedagogning amaliy faoliyatida sezilarli sifat o'zgarishlariga olib kelmaganini ko'rsatdi. Aksincha, individual o'qitish yo'nalishlari asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat kasbiy kompetensiyalarni yangilaydi, balki innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etishni rag'batlantiradi.

Bu natijalar T.V. Kudryavtsev (2018) tomonidan ilgari surilgan xulosalar bilan hamohang bo'lib, u loyiha asosidagi faoliyatni pedagoglarning kasbiy o'sishidagi samarali vosita sifatida e'tirof etgan.

Tadqiqotda, shuningdek, tajriba guruhidagi pedagoglar orasida kasbiy charchash (professional burnout) belgilarining kamaygani ham aniqlandi. Bu esa psixologik qo'llab-quvvatlash va pedagog shaxsining individualligini inobatga olish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur jihat hozirgi kunda amaldagi ko'plab malaka oshirish dasturlarida yetarli darajada aks etmagan va bu masala kelgusida alohida e'tibor talab qiladi.



Shu bilan birga, tadqiqot ba'zi cheklovlarni ham aniqladi:

- *birinchidan*, model cheklangan ishtirokchilar guruhida sinovdan o'tkazilgan, shuning uchun uni boshqa hududlar va ta'lim bosqichlariga tatbiq etish uchun kengroq miqyosdagi tadqiqot zarur;
- *ikkinchidan*, tizimning muvaffaqiyatli ishlashi raqamli infratuzilma va malakali murabbiylar (mentorlar) mavjudligiga bog'liq, bu esa barcha ta'lim muassasalarida ham har doim ta'minlanmagan.

Umuman olganda, olingan natijalar pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini individuallashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan modelning nazariy va amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan malaka oshirish tizimlarini yaratish yo'lida muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirish bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlaridan biridir.

Ishlab chiqilgan va tajriba asosida sinovdan o'tkazilgan individuallashtirish pedagogik tizimi modeli o'z samaradorligini isbotladi. U nafaqat pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, balki ularning psixologik holatini yaxshilash va kasbiy faoliyatdan qoniqish darajasini oshirishga ham xizmat qiladi.

Taklif etilgan modelning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- moslashuvchanlik – har bir pedagogning shaxsiy ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashadi;
- individuallikka yo'naltirilganlik – o'qituvchining shaxsiy rivojlanish yo'lini shakllantirish imkonini beradi;
- raqamli texnologiyalar integratsiyasi – zamonaviy ta'lim jarayoniga moslashgan;
- motivatsiyani kuchaytirish – pedagogni o'z ustida ishlashga undaydi;
- innovatsion metodlarni joriy etish – o'qitish sifatini oshiradi.

Individuallashtirilgan ta'lim yo'llarini joriy etish natijasida o'qituvchilar o'z kasbiy o'sishlariga faolroq munosabatda bo'ladilar, yangi metodikalarni qo'llaydilar va o'z faoliyatlarining natijalaridan yuqori darajada qoniqish hosil qiladilar.

Biroq tadqiqotda aniqlangan ayrim cheklovlar ushbu tizimni keng joriy etishda e'tiborga olinishi lozim:

- 1) barcha hududlarda bir xil texnologik infratuzilma mavjud emas;
- 2) mentorlik faoliyatini amalga oshiruvchi malakali kadrlar yetishmasligi kuzatiladi.

Modelni keng miqyosda tatbiq etish uchun:

- barcha toifadagi pedagoglar uchun teng imkoniyatli sharoitlar yaratish;
- raqamli resurslar va masofaviy o'qitish tizimlarini kengaytirish;
- murabbiy-konsultantlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish zarur.

Shunday qilib, pedagoglarning uzluksiz kasbiy rivojlanish jarayonini individuallashtirish tizimini takomillashtirish zamonaviy, innovatsion va insonparvar ta'lim tizimini shakllantirish yo'lida muhim qadamlardan biridir.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlar taklif etilgan modelni optimallashtirish, turli ta'lim darajalariga moslashtirish va shaxsga yo'naltirilgan kasbiy ta'lim tizimlarini rivojlantirish yo'nalishlariga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Verbitskiy A.A. Oliy ta'limda faol o'qitish: kontekstual yondashuv. – Moskva: Logos, 2017. – 288 bet.
2. Polat E.S. Ta'lim tizimidagi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari. – Moskva: Akademiya, 2020. – 368 bet.
3. Kudryavtsev T.V. Loyihaviy faoliyat pedagoglarning kasbiy rivojlanish vositasi sifatida // Pedagogika jurnali. – 2018. – №9. – B. 45–50.
4. Zmeyev S.I. Andragogika nazariyasi va amaliyoti. – Moskva: Flinta nashriyoti, 2021. – 312 bet.
5. Ilyin E.P. Motivatsiya va motivlar. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019. – 512 bet.
6. Sergeyev I.S. Innovatsion ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Moskva: Prosveshcheniye, 2020. – 256 bet.
7. Filippov S.A. Ta'limning raqamlashtirilishi: muammolar va istiqbollar // Ta'lim masalalari jurnali. – 2021. – №2. – B. 112–128.
8. Dyachenko M.I., Kandybovich L.A. Oliy maktab psixologiyasi. – Minsk: Universitet nashriyoti, 2018. – 384 bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.